
«Ayollar daftari»: Daromad manbaiga ega bo'lmoqda

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

Bugungi kunda Rishton tumani oila va xotin-qizlar bo'limi tomonidan "Ayollar daftari" ro'yxatiga olingan fuqarolarni bandligini ta'minlash va daromad manbaiga ega bo'lishlari uchun ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, ishsiz xotin-qizlarga subsidiya asosida berilgan tikuv dastgohlaridan samarali foydalanilganligi bois oilaning kunlik o'z daromadi yuzaga kelmoqda.

Hozirda Dasht Tegirmon MFY da "Ayollar daftari"ning birinchi toifasiga kiritilgan Umarova Dildoraxonga subsidiya asosida tikuv mashinasi berilgan edi.

Hozirda fuqaro o'zining kasbini davom ettirib, o'z yoniga vaqtincha ishsiz bo'lgan yoshlarni jalb qilib, ustoz shogird an'anasini davom ettirmoqda.

Albatta bugungi kunda har bir sohada ustoz-shogird an'analari mavjud bo'lib, bizning tumanda hunarmandchilikning deyarli barcha soxalarida ilg'orlik namoyon bo'lmoqda.

Tumanimizda ustoz-shogird an'alarini davom ettirayotgan xotin-qizlarni hamisha qo'llab-quvvatlanadi va e'zozlanadi.

2022-08-11 08:42:28